



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar- noyabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1132,3 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 485,4 mln. AQSH dollariga yoki 75,0 % ga o'sdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar - noyabr, mln. AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **1 132,3 (+175,0%)**

(2023- y.: **646,9**)



Saldo

2024- y.: **-195,0** (2023- y.: **118,6**)



Eksport

2024- y.: **468,7 (+122,5 %)**

(2023- y.: **382,7**)

TSA'dagi ulushi

58,6 %


41,4 %



Import

2024- y.: **663,6 (+2,5 m.)**

(2023- y.: **264,2**)



TSAda eksport hajmi 468,7 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 22,5 % ga ko'paydi) va import hajmi 663,6 mln. AQSH dollariga (2,5 martaga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 195,0 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.






QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar- noyabr, mln. AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston Qashqadaryoning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Turkiya, Rossiyada, Germaniyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.










Qashqadaryo viloyati jahonning 84 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (25,2 %), Rossiyada (9,0 %), Qozog'istonda (2,6 %), Turkiyada (20,3 %) va Germaniyada (3,3 %) qayd etilgan.











<p>XXR</p> <p>TSA – 285,7</p> <p>Eksport: 21,1 Import: 264,6</p>  25,2 %	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 102,1</p> <p>Eksport: 71,6 Import: 30,5</p>  9,0 %	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 29,5</p> <p>Eksport: 16,6 Import: 12,9</p>  2,6 %	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 229,8</p> <p>Eksport: 62,3 Import: 167,5</p>  20,3 %	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 5,2</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 5,2</p>  0,5 %
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 37,7</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 37,5</p>  3,3 %	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 2,7</p> <p>Eksport: 0,1 Import: 2,6</p>  0,2 %	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 1,7</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 1,7</p>  0,2 %	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 18,1</p> <p>Eksport: 16,9 Import: 1,2</p>  1,6 %	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 7,9</p> <p>Eksport: 1,3 Import: 1,6</p>  0,7 %



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar- noyabr, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	XXR	87,4	166,3	285,7
	<i>Eksport</i>	13,5	28,7	21,1
	<i>Import</i>	73,9	137,6	264,6
	Rossiya	83,9	90,1	102,1
	<i>Eksport</i>	58,7	64,7	71,6
	<i>Import</i>	25,2	25,4	30,5
	Qozog'iston	25,7	31,4	29,5
	<i>Eksport</i>	11,6	15,1	16,6
	<i>Import</i>	14,1	16,3	12,9
	Turkiya	125,1	96,2	229,8
	<i>Eksport</i>	96,7	79,9	62,3
	<i>Import</i>	28,4	16,3	167,5
	Koreya Respublikasi	5,0	4,7	5,2
	<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,0
	<i>Import</i>	4,7	4,7	5,2
	Germaniya	16,1	6,1	37,7
	<i>Eksport</i>	1,3	0,3	0,2
	<i>Import</i>	14,8	5,8	37,5
	Turkmaniston	2,5	1,4	2,7
	<i>Eksport</i>	0,4	0,3	0,1
	<i>Import</i>	2,1	1,1	2,6
	Fransiya	1,3	1,1	1,7
	<i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,0
	<i>Import</i>	1,1	0,9	1,7
	Afg'oniston	10,6	7,1	18,1
	<i>Eksport</i>	10,4	7,0	16,8
	<i>Import</i>	0,2	0,1	1,3
	Hindiston	11,3	7,5	7,9
	<i>Eksport</i>	7,5	5,4	1,3
	<i>Import</i>	3,8	2,1	6,6

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
AQSH	4,3	23,0	119,4
 <i>Eksport</i>	0,0	20,1	114,4
<i>Import</i>	4,3	2,9	5,0
Qirg'iz Respublikasi	20,8	9,6	8,1
 <i>Eksport</i>	12,8	4,5	1,0
<i>Import</i>	8,0	5,1	7,1
Belarus	8,3	3,9	3,1
 <i>Eksport</i>	1,5	1,7	2,2
<i>Import</i>	6,8	2,2	0,9
Tojikiston	4,9	16,3	18,2
 <i>Eksport</i>	3,0	15,6	17,3
<i>Import</i>	1,9	0,7	0,9
Litva	1,5	4,1	7,4
 <i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,6
<i>Import</i>	1,5	4,0	6,8
BAA	0,9	41,2	40,6
 <i>Eksport</i>	0,7	39,1	33,1
<i>Import</i>	0,2	2,1	7,5
Eron	18,5	13,4	12,3
 <i>Eksport</i>	15,3	11,8	9,9
<i>Import</i>	3,2	1,6	2,4
Braziliya	0,1	1,2	3,3
 <i>Eksport</i>	0,0	1,2	3,2
<i>Import</i>	0,1	0,0	0,1
Chexiya	1,9	1,3	1,2
 <i>Eksport</i>	1,2	0,8	0,9
<i>Import</i>	0,7	0,5	0,3
Italiya	2,6	13,7	4,5
 <i>Eksport</i>	0,7	11,2	1,5
<i>Import</i>	1,9	2,5	3,0

QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI*

(2024- yil yanvar- noyabr, mln. AQSH doll.)




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 45,9% ulush bilan 520,3 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Muborak tumani 0,4% ulush bilan 4,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI



(yanvar- noyabr, ulushi foizda, hajmi mln. AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-noyabr oyida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 15,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 - yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga ko'paydi.

Qashqadaryo viloyati bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan viloyat eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

Viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,0 martaga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 84,9 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, 170,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 115,6 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 55,2 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

Rossiya – 59,8



Qozog'iston – 17,3



Turkmaniston – 1,6



Qirg'iz Respublikasi – 4,8



Belarus – 1,8



Tojikiston – 10,6



Ozarbayjon – 1,2



Ukraina – 1,4



Armaniston – 0,2



Moldova – 0,3




MDHning erkin savdo hududida savdo qilish, viloyatning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (59,8 %), Qozog'iston (17,3 %) hamda Tojikiston (10,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar- noyabr, mln. AQSH dollari)



Qashqadaryoning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 149,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 91,8 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 51,4 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 210 taga yetdi va ular tomonidan 468,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 22,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	382,7	468,7	128,2	122,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	58,8	60,7	115,1	103,2	15,4	12,9
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,6	116,0	109,8	0,2	0,1
Yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo	0,1	0,0	78,4	10,2	0,0	0,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	75,1	167,3	85,9	2,2 m.	19,6	35,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,1	3,3	74,6	35,0 m.	0,0	0,7
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	2,1	1,1	98,5	51,1	0,6	0,2
Sanoat tovarlari	233,7	225,8	97,5	96,6	61,1	48,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	4,6	2,3	143,5	49,2	1,2	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	0,3	0,0	115,1	0,0	0,1	0,0
Boshqa tovarlar	3,6	3,0	116,2.	82,5	1,0	0,6
Xizmatlar	3,7	4,5	120,5	122,3	1,0	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,0% ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (48,3%), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (35,7%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,9%) va kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (0,2%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-noyabr)

 XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	60,7	122,5
Sabzavotlar va mevalar	55,6	128,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,4	34,3
Go'sht va go'sht mahsulotlari	-	-
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	-	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	-	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,031	-
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,1	4,8
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,2	140,0
Tirik hayvonlar	-	-
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki	0,6	109,8
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,6	109,1
Ichimliklar	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo	261,3	2,2 m.
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	209,4	100,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Qog'oz massasi va makulatura	0,013	-
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	-	-
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	1,1	111,1
Tabiiy kauchuk	-	-
Probka va yog'och-taxtalar	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	167,3	147,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	167,3	3,1 m.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	-	-
Elektr toki	-	-
Ko'mir, koks va briketlar	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,3	35,0 m.
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	3,2	145,2
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,1	51,1
Noorganik kimyo moddalari	-	-
O'g'itlar	0,0417	38,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	-	-
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	-	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	-	-
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	-	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	-	-
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	-	-
Organik kimyo moddalari	-	-


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	225,8	69,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	115,2	97,6
Rangli metallar	56,2	101,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	11,2	135,3
Cho'yan va po'lat	10,0	95,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	12,1	118,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	2,6	71,4
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	12,6	105,2
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	18,0	171,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	2,5	165,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2,3	49,2
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	1,5	78,5
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	<i>0,5</i>	<i>72,5</i>
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,2	118,9
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	-	-
Boshqa transport uskunolari	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,03
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,0	0,0
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	-	-
Poyabzal	-	-
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	-	-
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	-	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	-	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	-	-
Boshqa tovarlar	3,0	82,5
Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	-	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,5 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH



2024-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 40,5 % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr)





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O‘sish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	55,6	71,6	105,0	128,8	2	2
XXR	18,6	21,1	87,5	113,4	6	6
Qozog‘iston	2,8	3,5	102,1	125,0	10	10
Turkiya	56,8	62,3	79,3	109,7	3	3
Afg‘oniston	14,5	16,8	117,5	115,9	7	7
Fransiya	0,02	0,02	5,1 m.	100,0	18	18
Qirg‘iz Respublikasi	1,0	1,0	70,6	100,0	14	14
Tojikiston	16,2	17,2	117,8	106,2	8	8
AQSH	110,6	114,4	2,2 m.	103,4	1	1
Pokiston	25,6	27,5	151,6	107,4	5	5
BAA	26,5	33,1	2,4 m.	124,9	4	4
Ozarbajjon	1,8	1,9	103,0	105,5	12	12
Litva	0,5	0,6	150,4	120,0	15	15
Eron	9,6	9,9	108,1	103,1	9	9
Belarus	2,1	2,2	116,6	104,8	11	11
Buyuk Britaniya	-	-	-	-	-	-
Turkmaniston	0,1	0,1	77,0	100,0	16	16
Latviya	0,1	0,1	107,6	100,0	17	17
Hindiston	1,2	1,3	3,5 m.	108,3	13	13
Polsha	9,5	10,6	69,7	111,6	8	8


QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2024- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH doll.)



Eksport hajmi eng yuqori bo'lgan hududlar

Viloyatdagi ulushi Mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 35,6 % bilan 166,7mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Dehqonobod tumani 0,5 % bilan 2,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.











MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida 195,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,7 martaga yoki 124,3 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (57,7 %), Qozog'iston (37,8 %), Qirg'iz Respublikasi (10,8 %) hamda Pokiston (8,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>5,3 mln. AQSH dollari</p> <p>4,6 ming tonna</p> <p>77,8 %</p> 	<p>Karam</p> <p>4,1 mln. AQSH dollari</p> <p>11,7 ming tonna</p> <p>4,6 m.</p> 	<p>Piyoz</p> <p>7,6 mln. AQSH dollari</p> <p>33,4 ming tonna</p> <p>4,7 %</p> 	<p>Loviya</p> <p>15,9 mln. AQSH dollari</p> <p>3,8 ming tonna</p> <p>94,5 %</p> 
<p>Pomidor</p> <p>0,6 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p>39,0 %</p> 	<p>Sitrus mevalar</p> <p>0,09 mln. AQSH dollari</p> <p>0,04 ming tonna</p> <p>23,6 %</p> 	<p>Bodring</p> <p>0,09 mln. AQSH dollari</p> <p>0,2 ming tonna</p> <p>45,6 %</p> 	<p>Sabzi</p> <p>2,9 mln. AQSH dollari</p> <p>9,2 ming tonna</p> <p>2,2 m.</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Ming tonna	MIn. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	42,6	19,6	23,4
 Qozog'iston	58,5	13,1	15,6
 Pokiston	55,2	17,1	20,4
 Afg'oniston	10,3	11,6	13,8
 XXR	4,5	3,1	3,8
 Qirg'iz Respublikasi	3,0	0,6	0,7
 Turkiya	0,7	0,4	0,5
 Belarus	0,3	0,06	0,0
 Ozarbayjon	0,3	0,5	0,6
 Gruzuya	0,09	0,2	0,2
 Iroq	0,8	0,3	0,4
 Eron	0,6	9,0	10,8
 Ukraina	0,02	0,02	0,0
 BAA	0,3	0,1	0,1
 Boshqa davlatlar	19,7	8,4	10,4

* qiymat ifodasidan

2024- yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 23,4 % ini), bu esa Pokiston eksport hajmiga nisbatan 2,0 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo‘yicha 209,4 mln. AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 44,7 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 0,3 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxta tolasi (91,8 %), Kiyim – kechak mahsulotlari (4,0 %) asosiy ulushni egallagan. 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 14 ta davlatiga eksport qilindi.




TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

2024- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, % da.



209,4 (2023 y.: 215,6)

Jami



192,4 (189,5)

Paxta tolasi



8,3 (8,4)

Kiyim – kechak



0,3 (0,3)

Jundan tayyorlangan mato




0,1 (0,1)

Gazlamalar

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 4,5 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,0 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 22,3 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (80,4 %), boshqa xizmatlar (19,1 %), safarlar (turizm) (0,3 %), transport (0,2 %), hissasiga to'g'ri kelgan.

QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 663,6 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (75,8%), sanoat tovarlari (5,3%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,9%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr)



5,3%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,1%

2. Ichimliklar va tamaki



1,0%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



1,4%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,0%

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



9,9%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



5,3%

7. Sanoat tovarlari



75,8%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



0,0%

9. Turli xil tayyor buyumlar



1,2%

10. Boshqa tovarlar



0,0%

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 401,0 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 663,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,3 mln. AQSH dollariga yetdi.


*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QSHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	264,1	663,6	2,6 m.	2,5 m.	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,1	35,2	105,6	2,5 m.	5,3	5,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,6	134,3	18,6 m.	0,0	0,1
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo	5,9	6,5	87,8	110,6	2,2	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,6	0,9	142,2	88,3	4,0	1,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	0,1	125,7	11,6	0,4	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	26,0	65,7	114,4	2,5 m.	9,8	9,9
Sanoat tovarlari	27,9	35,4	108,2	126,7	10,6	5,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	169,4	502,6	149,6	3,0 m.	64,2	75,8
Turli xil tayyor buyumlar	0,3	0,3	114,3	100,9	0,1	0,0
Boshqa tovarlar	7,2	7,6	149,2	105,9	2,7	1,2
Xizmatlar	1,8	0,3	97,1	16,7	0,7	0,0

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr)


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
 Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	35,2	2,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,8	44,7
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,7	11,5 m.
Go'sht va go'sht mahsulotlari	-	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,007	113,3
Sabzavotlar va mevalar	25,0	119,6
Hayvonlar uchun ozuqalar	0,5	3,2 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	-	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	-	-
Tirik hayvonlar	6,2	136,1
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki	0,6	18,6 m.
Ichimliklar	0,6	6,2 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Yoqilg'idan tashqari , nooziq-ovqat xomashyo	6,5	110,6
Probka va yog'och-taxtalar	-	-
Metall rudalari va metall parchalari	4,2	94,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	-	-
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	0,1	91,8
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,2	109,4
Qog'oz massasi va makulatura	0,2	110,4
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1,6	71,5
Tabiiy kauchuk	-	-
Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9,3	88,3
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	-	-
Tabiiy yoki sun'iy gaz	9,3	96,5
Ko'mir, koks va briketlar	-	-
Elektr toki	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	11,6
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,1	84,8
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	65,7	2,5 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1,3	154,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,2	87,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,3	107,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	0,1	103,1
Organik kimyo moddalari	3,8	87,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	0,5	88,5
Noorganik kimyo moddalari	3,2	79,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,3	81,8
O'g'itlar	0,6	81,8

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	35,4	126,7
Cho'yan va po'lat	24,2	105,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	92,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,3	85,0
Rezina buyumlari	-	-
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	-	-
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
Rangli metallar	7,4	111,4
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	-	-
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	502,6	3,0 m.
Avtomobililar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	12,3	76,2
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	-	-
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	-	-
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	299,2	3,8 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	175,6	94,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	-	-
Boshqa transport uskunolari	-	-
Metallarni qayta ishlash mashinalari	-	-
Boshqalar	7,6	105,9
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	2,1	93,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	2,2	3,0 m.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1,8	2,9 m.
Poyabzal	-	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	-	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	-	-

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 8,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, ulushi % da, hajmi mln. AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida Qashqadaryo viloyati 68 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Turkmaniston va Germaniya) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr)






QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	278,6	264,6	165,5	97,3	1	1
Rossiya	25,6	30,6	105,7	125,3	2	4
Qozog'iston	13,4	12,9	94,3	93,8	4	6
Koreya Respublikasi	5,4	5,2	95,4	88,2	6	3
Turkiya	170,1	167,5	106,9	99,3	2	2
Germaniya	36,4	37,5	102,5	111,0	3	3
Turkmaniston	2,4	2,5	122,6	106,7	7	7
Hindiston	6,5	6,6	95,9	133,7	5	8
AQSH	4,5	5,0	124,1	122,1	13	9
Belarus	0,8	0,9	122,2	112,5	12	10
Braziliya	0,8	0,6	126,7	67,4	8	11
Litva	0,6	0,5	120,4	93,1	11	12
Chexiya	1,1	1,2	2,5 m.	126,3	18	13
Italiya	0,6	0,5	129,7	92,7	14	14
BAA	0,3	0,4	98,0	103,9	15	15
Fransiya	1,4	0,9	2,3 m.	67,8	10	16
Eron	2,3	2,4	110,3	99,6	17	17
Yaponiya	18,4	21,2	96,6	144,3	24	5
Qirg'iz Respublikasi	1,2	0,9	114,1	93,2	20	19
Polsha	1,0	0,8	156,7	88,8	19	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2024- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH doll.)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 53,3 % bilan 353,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Muborak tumani 0,1 % bilan 0,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollarida)




2024- yilning yanvar-noyabr oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 0,3 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 9,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 16,7 % ga kamaydi.

Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (73,6 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (7,3 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (19,1 %) ga tegishli bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 126,7 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,9 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 15,6 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr)

17,5 mln. AQSH doll.
Ulushi – 36,0 %



Rossiya

16,0 mln. AQSH doll.
Ulushi – 32,4 %



XXR

6,0 mln. AQSH doll.
Ulushi – 12,1 %



Qozog'iston

2,4 mln. AQSH doll.
Ulushi – 4,9 %



Turkiya

1,3 mln. AQSH doll.
Ulushi – 2,5 %



Koreya
Respublikasi

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (2,1 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (0,6 mln. AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (0,4 mln. AQSH dollari), rezina buyumlari (0,3 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.